



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH  
MUHANDISLARI INSTITUTI



**FAN: YER RESURSLARINI BOSHQARISH**

MAVZU

**07**

**MAMLAKAT YERDAN FOYDALANISHINI  
BOSHQARISHNING BUGUNGI HOLATI  
VA UNI TAKOMILLASHTIRISH**



**RO'ZIBOYEV S.B**



**Yer resurslarini boshqarish  
kafedrasi dotsenti, PhD**



## *REJA:*



**1. Respublikada yer resurslarini boshqarish tizimining shakillanishi bosqichlari.**

**2. Mamlakat yerdan foydalanishini boshqarishning bugungi holati va uni takomillashtirish**

# ADABIYOTLAR

## Asosiy adabiyotlar

1. Rahmonov Q.R., Narbaev Sh.K., Muqimov Z.M. Yer resurslarini boshqarish. O‘quv qo‘llanma. T.: TIQXMMI, 2019. – 157 b.
2. Varlamov A.A., Galchenko S.A. Upravlenie zemelnymi resursami. Uchebnoe posobie. M.: GUZ, 2005. – 240 s.
3. Selim Kapor, Hari Eswaran, Winfried Blum. Sustainable Land Management. Springer-Verlag Berlin and Heidelberg GmbH & Co. KG. Germany 2016.

## Qo‘shimcha adabiyotlar


4. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017. “Gazeta.uz”.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”, T.: “Adolat”, 2011 y.
6. O‘zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati to‘g‘risida Milliy hisobot. T.: “Davergeodezkadastr” qo‘mitasi, 2019.

# Respublikada yer resurslarini boshqarish uslublari



- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, yer resurslarini boshqarishga oid qonun va normativ xujjatlar asosida davlat chegarasi doirasida, shu jumladan, barcha mintaqalar, viloyatlar va tumanlar ma‘muriy hududlarida yer resurslaridan foydalanish ishlari boshqariladi.
- Respublikada yer resurslarini boshqarish bir necha bosqichlardan iborat bo‘lib, bular:
- *davlat boshqaruvi;*
- *mahalliy boshqaruv*
- *xo‘jalik boshqaruvi.*
-

# ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ МАЪМУРИЙ – ХУДУДИЙ БУЛИНИШИ



**Umumiy foydalanishdagi yer  
maydoni 44892,6 ming ga**

**YERB  
bosqichlari**

- **Davlat boshqaruvi:**
- **umumdavlat boshqaruvi**
- **idoraviy boshqaruv**

**Mahalliy boshkaruv (QQR,  
viloyatlar va tumanlarda  
YERB)**

**Xo‘jalik (alohida yerdan  
foydalanuvchi sub’ektlarda)  
boshqaruvi**

# Respublikada yer resurslarini boshqarish uslublari



Yer resurslarini boshqarishda davlat boshqaruvi o'zining mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda umumiy va maxsus (idoraviy) boshqaruv turlariga bo'linadi.

- Umumiy boshqaruv umumiy vakolatga ega bo'lgan qonun chiqaruvchi va uni ijro etuvchi davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.
- Maxsus (idoraviy) boshqaruv yer resurslarini boshqarish va ulardan foydalanish nazorat qilish buyicha maxsus vakolatga ega bo'lgan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi

# YERB buyicha davlat organlari tizimi

## Umumiy vakolatli

Oliy Majlis

Vazirlar Mahkamasi

Suv xo'jaligi vazirligi

Prokuratura

Давлат солиқ қўмитаси

QQR va viloyatlar xoqimiyat organlari

Tumanlar va shaharlar xoqimiyat organlari

## Maxsus vakolatli

Kadastr agentligi va uning hududiy boshqarmalari

Qishloq xo'jaligi vazirligi

Ekologiya va atrof muhit muhit muhofazasi Davlat qo'mitasi va uning hududiy bo'limlari



**Kadastr agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalarining TUZILMASI**



**Kadastr agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi Viloyat va Toshkent shahar boshqarmalari (davlat budjeti)**

**Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi Viloyat va Toshkent shahar boshqarmalari (xo‘jalik hisobi)**



**Kadastr agentligining tuman va shaharlar bo‘limlari (davlat budjeti)**

**Davlat kadastrlari palatasining tuman va shaharlar bo‘linmalari (xo‘jalik hisobi)**



***Yer munosabatlarini tartibga solish sohasida quyidagilar  
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining  
vakolatlariga kiradi:***

- yerlardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- Yer kodeksiga, boshqa qonun hujjatlariga muvofiq yer munosabatlarini tartibga solish to‘g‘risida normativ hujjatlar qabul qilish;
- tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish yuzasidan davlat dasturlarini tasdiqlash;
- qishloq xo‘jaligining tabiiy moslashuvi jihatidan yerlarni rayonlashtirish, yer tuzishni, yer monitoringi o‘tkazilishini va davlat yer kadastri yuritilishini tashkil etish;


Respublikada yer resurslaridan foydalanish 1998 yilga qadar O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi Vazirligi qoshidagi yerdan foydalanish va yer tuzish Bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshirilgan. Boshqarma tarkibida 4 bo'lim faoliyat ko'rsatgan: yerlarni davlat hisobi, yerlarni baholash, huquq bo'limi va moliya bo'limi. Barcha oldingi yillar, ya'ni iqtisodiyotni rejaliligi hamda yerga davlat mulkchiligi sharoitida, boshqarmaning yer siyosati asosan qishloq xo'jalik yerlarini tashkil etish va ulardan foydalanishga bo'ysundirilgan edi. Boshqa toifa yerlari, qoidaga binoan, yer resurslaridan foydalanishni integratsion boshqarishda katta rol o'ynamagan. Ishlab chiqilgan respublika yerdan foydalanishining Bosh sxemasi hamda viloyatlar va tumanlar yer tuzish sxemalari qishloq hududlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan hamda, asosan, qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha tadbirlarni ko'zda tutgan.

1998 yili O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”, “Qishloq xo‘jalik kooperativi (shirkati) to‘g‘risida”, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”, “Davlat yer kadastrini to‘g‘risida”gi qonunlarini o‘z ichiga olgan holda mamlakatda yer qonunchiligining bazasi yaratildi, yerdan foydalanishga bozor tamoyillari qo‘llanila boshlandi, shu jumladan: yerdan foydalanishning pulliligi, xususiy yerdan foydalanish, bozor yer munosabatlari va boshq. Yer resurslarini bozor munosabatlariga tortilishi hamda o‘tish davrida ulardan foydalanish samaradorligiga talabni oshirilishi sababli 1998 yili hukumat tomonidan O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari Davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi (Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyuldagi 114-sonli “O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari Davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risidan”gi Qarori).


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003yil 9 dekabridagi PF-3358-sonli “Davlat boshqaruvining respublika organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq hamda yerdan foydalanish, geodeziya va kartografiya sohalarida boshqaruv tizimini takomillashtirish, yer munosabatlarini muvofiqlashtirish hamda oqilona yerdan foydalanishni ta’minlash, davlat kadastrining Yagona tizimini yuritish maqsadlarida 2004 yili tugatilayotgan O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari Davlat qo‘mitasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlari Bosh boshqarmasi negizida O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlari Davlat qo‘mitasi (Yergeodezkadastr) tashkil etilgan.

Iqtisodiy sohadagi keyingi yillardagi keng ko‘lamli o‘zgarishlar yer va u bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan resurslarning aniq nisbatini yuritish, ulardan oqilona va barqaror foydalanish tizimini yanada takomillashtirishni talab qildi. Xususan, yerlarni ajratishni, ularning hisobini yuritishni, qishloq xo‘jalik ekinlarini joylashtirishni, yer nazoratini amalga oshirish vazifalarining bir organda to‘planib qolganligi, yer uchastkalari, bino va inshootlarga (ko‘chmas mulklarga) kadastr yig‘ma jildi ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning o‘zi tomonidan tayyorlanib kelayotganligi sohada manfaatlar to‘qnashuvini yuzaga keltirdi. Shularni e‘tiborga olgan holda va yer hisobi va davlat kadastrlarining yagona tizimini samarali yuritish maqsadida O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentabrdagi PF-6061 sonli farmoniga binoan mamlakat yer resurslaridan foydalanishni boshqarish tizimida quyidagi o‘zgarishlar ro‘y berdi:

# 1-Chizma. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining tashkiliy tuzilmasi



# 2-Chizma. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi markaziy apparatining tuzilmasi



Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni –81 nafar  
 \* Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi



**3-Chizma. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya  
vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Qoraqalpog‘iston  
Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalarining  
namunaviy tuzilmasi**

Boshliq


Bosh inspektor

**0-1**

Yetakchi inspektor

**0-16\***


## 4-Chizma. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining tuman (shahar) bo‘limlarining namunaviy tuzilmas



Boshqaruv va ishlab chiqarish xodimlarining cheklangan soni –**114** nafar

\*O‘z faoliyatiga doir vazifalarni amalga oshirishda bevosita Kadastr agentligiga bo‘ysunadi

## 5-Chizma. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi markaziy apparating tuzilmasi



Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni – 224 nafar

\*Davlat kadastrlari palatasining tuman (shahar) filiallariga ham xizmat ko'rsatadi, o'z faoliyatiga doir vazifalarni amalga oshirishda bevosita Kadastr agentligiga bo'ysunadi

\*\*Ro'yxatdan o'tkazish bo'limi shtat birliklari soni quyidagicha belgilaydi:

| 5 nafar  | 6 nafar | 7 nafar | 8 nafar     | 9 nafar          | 10 nafar    |
|----------|---------|---------|-------------|------------------|-------------|
| Sirdaryo | Jizzax  | Buxoro  | Qashqadaryo | Qoraqalpog'iston | Toshkent v. |
|          | Navoiy  | Xorazm  | Namangan    | Andijon          | Farg'ona    |
|          |         |         | Surxondaryo | Samarqand        | ...         |



***Этиборларингиз учун  
рахмат!***